



Aripova Omila Tulkinbayevna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi

IJTIMOY DAVLAT BOSHQARUVIDA MAHALLA INSTITUTINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy davlat konsepsiyasi va uning tuzilmasida mahalla institutining tutgan o'rni atroflicha yoritilgan. Mahallaning milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalari, "mahallabay" ishlash tizimi, huquqiy asoslar, amaliy natijalar va davlat bilan jamiyat o'rtasidagi ko'priq sifatidagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, mahallaning adolatli va hamjihat jamiyat qurilishidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация. В этой статье подробно рассматривается концепция социального государства и роль института махалла в его структуре. Анализируются образовательные и социальные задачи микрорайона на основе национальных ценностей, система работы «махаллабай», правовые основы, практические результаты и его роль как связующего звена между государством и обществом. Особое внимание также уделяется важности махалла в построении справедливого и сплоченного общества.

Annotation. This article provides a detailed analysis of the concept of a social state and the role of the mahalla institution within its structure. It analyzes the educational and social functions of the mahalla based on national values, the mahallabay system, legal foundations, practical outcomes, and its role as a link between the state and society. Special attention is also given to the importance of the mahalla in building a just and cohesive society.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy davlat, mahalla instituti, "mahallabay" tizimi, milliy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, davlat boshqaruvi, fuqarolar yig'inlari, "Mahalla yettiligi", mahalla islohotlari, hamjihatlik, tarbiya va yordam.

Ключевые слова: социальное государство, институт махалла, система «махаллабай», национальные ценности, социальная справедливость, государственное управление, собрания граждан, реформа махалли, солидарность, воспитание и поддержка.

Keywords: social state, mahalla institution, mahallabay system, national values, social justice, public administration, citizens' assemblies, mahalla reform, solidarity, education, and support.

Kirish. Bugungi kunda yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat qurish jarayoni jadal tus olmoqda. Bu jarayonda jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan holda fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash, adolat va tenglik tamoyillarini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining asosiy maqsadidir. Ijtimoiy davlat – fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga kafolat berilgan, ehtiyojmand qatlamlarga ko‘mak ko‘rsatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan davlat. Mahalla esa, mana shu yo‘nalishda ijtimoiy adolatni ta‘minlash, muhtojlarga yordam berish, nogironligi bo‘lgan shaxslar va keksa fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, oilalar bilan yaqin muloqotda bo‘lish, xotin-qizlar, ayniqsa, yoshlarning bandligini ta‘minlash, oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni amalga oshirishda “birinchi halqa” hisoblanadi.

Jamiyatimizning eng muhim va tayanch bo‘g‘ini hisoblangan mahalla institutini xalqimizning chinakam ko‘makdoshiga aylantirish, mahallalarda o‘zini o‘zi boshqarishning huquqiy bazasini, boshqaruv tizimining institutsional asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha keng ko‘lamli faoliyat amalga oshirilmoqda.

Maqsad va uni asoslash. Mahalla instituti faqatgina ma‘muriy tuzilma bo‘libgina qolmay, balki fuqarolik jamiyatining faol subyektlaridan biri hisoblanadi. Uning davlat rivojida o‘rni inson manfaatlariga xizmat qiluvchi adolatli va shaffof boshqaruv modelining namunalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 69-moddasida fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi hamda 127-moddasida esa mahalla institutining vakolatlari quyidagicha belgilab qo‘yilgan: “Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an‘analardan kelib chiqqan holda qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli” ekani belgilab berilgan¹.

Mahalla biz uchun, eng avvalo, milliy qadriyatlar, o‘zaro yordam, ahillik va insonparvarlik maskani sifatida yuksak qadrlanadi. Unda xalqning o‘doba-xloqi, urf-odatlari va mehr-oqibati mujassam bo‘lib, mahalla aholining birlashuv nuqtasi, hamjihatlik va o‘zaro hurmat asosida davlat bilan xalq o‘rtasidagi vositachi hisoblanadi.

Mahalla instituti faqatgina ma‘muriy tuzilma bo‘libgina qolmay, balki fuqarolik jamiyatining faol subyektlaridan biri hisoblanadi. Uning davlat rivojida o‘rni inson manfaatlariga xizmat qiluvchi adolatli va shaffof boshqaruv modelining namunalaridan hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445716>

Hozirgi kunda mahallalarda faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Oqila ayollar" harakati, "Buvijonlar maktabi", "Ayol ma'rifati" jamoatchilik kengashining aynan mahallalarda tashkil etilishi ham bejiz emas.

O'zbek xalqi mahallalari asrlar davomida chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan².

Mustaqillik yillarida o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati yangicha mazmun kasb etdi, vazifa va vakolatlari kengaytirilib, jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati yanada mustahkamlandi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. So'nggi yillarda mahalla institutini takomillashtirish davlatning diqqat e'tiborida bo'lib, bu borada aynan mahalla tizimini takomillashtirishga qaratilgan 100ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-sonli Farmoniga asosan "Mahallabay" ishlash tizimi joriy qilinib, "Mahalla raisi – xalq vakili" degan g'oya asosida mahalla rahbarlarining vakolatlari kengaytirildi³.

Hozirgi kunda mahallalarda faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Oqila ayollar" harakati, "Buvijonlar maktabi", "Ayol ma'rifati" jamoatchilik kengashining aynan mahallalarda tashkil etilishi ham bejiz emas. Chunki yoshlarni ma'nan yetuk, bilimli va fidoyi shaxslar etib tarbiyalash – mamlakat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonida faqat ta'lim muassasalari yoki oila emas, balki jamiyatning barcha qatlami, xususan, keksalar muhim o'rin tutadi. Ular hayot tajribasi, dunyoqarashi va insoniylik fazilatlarini orqali yoshlar uchun ibrat maktabi hisoblanadi.

O'tmishda jamoatchilik tarbiyasida qariyalar asosiy o'rin tutgan. Bugungi kunda ham ularning fikriga tayanish, tajribasini inobatga olish zamonaviy tarbiyada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, keksalar bo'lgan oilalarda bolalarda ruhiy barqarorlik, shaxsiy mas'uliyat va hurmat tuyg'usi kuchliroq bo'ladi. Ular o'z hayot yo'llarida to'plagan boy tajriba, aql-zakovat va sabr-toqatlari orqali yoshlarga hayot maktabini nihoyatda samarali o'rgatadigan ma'naviy

² N.Egamberdiyeva, O. Abdimo'minov, X. Abduramanov, X. Bo'riyeva, V. Ishkuvatov, A. Raximov, X. Raxmonov, Z. Ro'ziyev, M. Suvonqulov, F. Tolipov, Sh. Toshurov va boshqalar. O'zbekiston mahallalari: kecha va bugun. – Toshkent, 2022. – B. 132-133.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son Farmoni.

tarbiyachilardir. Masalan, oilaviy muhitda buvilarning ertak aytishi, qadimiy urf-odatlarini o'rgatishi yoki bobolarning hayotiy voqealarni gapirib berishlari yoshlar ongining shakllanishida chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy tarbiyaning asosi esa aynan ana shu suhbatlarda, muloqotlarda mujassam bo'ladi.

Shuningdek, mahalliy darajada keksalarni turli ma'naviy tadbirlarga jalb qilish, maktablarda "Hayot maktabi", "Uch avlod uchrashuvi" kabi loyihalar orqali yoshlarga ularning hayot yo'lini tanishtirish samarali natijalarni beradi. Bu avlodlar orasida muloqot, tajriba almashinuvi va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi. Ularning aytib bergan voqealari, ertak va hikoyalari, o'tgan zamonga oid tajribalari yoshlar ongida vatanga muhabbat, tarixga hurmat, insoniy fazilatlariga sadoqat tuyg'ularini shakllantiradi. Zero, "Qarisi bor uyning parisi bor", degan hikmatli so'z bejiz aytilmagan.

Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida yoshlar turli madaniyatlar ta'sirida qolib, o'z milliy va ma'naviy qadriyatlaridan uzoqlashmoqda. Shu jihatdan qaraganda, keksalarning yoshlar bilan doimiy muloqotda bo'lishi, ularga oilaviy an'analarni, urf-odatlarini o'rgatishi juda muhimdir. Bu – ma'naviy merosning avlodlar orasida uzviylikda saqlanishiga xizmat qiladi⁴.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mahallalarda "yettilik" tizimi joriy qilinib, keng imkoniyatlar yaratildi. Ular aholi bilan davlat o'rtasidagi ko'priklarni vazifasini bajarmoqda.

Bugungi kunda "Mahalla yettiligi": MFY raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim, soliq inspektori yurt taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yo'lida sidqidildan mehnat qilib, bir so'z bilan aytganda, islohotlar "drayveri" vazifasini bajarmoqda.

Mahalla xodimlarining o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalari bo'lgan milliy qadriyatlarga asoslangan farovon va barqaror avlodni tarbiyalash, kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy, moddiy yordam ko'rsatish, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy muammolar bilan ishlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, oilaviy nizolarni hal etish va profilaktika ishlarini olib borish, kasb-hunar o'rgatish, tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'maklashish, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, er-xotin ajrashishi, erta va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning oldini olish borasida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda 2025-yilning birinchi choragi yakunidagi ma'lumotlar tahliliga ko'ra, respublikada mavjud 9452 ta mahalladan 5019 tasida yoki 54,8 foizida oiladagi ajrashishlar qayd etilmagan, yashil – "Oilaviy ajrimdan xoli hudud" mahalla toifasiga kiritilib, 3286 tasi (34,8 foiz)da

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mahallalarda "yettilik" tizimi joriy qilinib, keng imkoniyatlar yaratildi. Ular aholi bilan davlat o'rtasidagi ko'priklarni vazifasini bajarmoqda.

⁴ Sh. Sodiqova. Keksalik va ma'naviy meros. – Toshkent, 2021. – B. 18-20.

oiladagi ajrashishlar soni kamaygan. Oiladagi ajrashishlar soni oshgan mahallalar 1147 – 12,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, mahallalarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan “Huquq va majburiyatlaringizni bilasizmi?” mavzusida o‘tkaziladigan tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, ijroga yo‘naltirilgan. Rejaga ko‘ra, joylarda turli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, amaliy uchrashuvlar muntazam tashkil etilib, mahallalarda har chorshanba kuni “Ayollar kuni” deb e‘lon qilingan.

“Oqila ayollar” harakati, “Ayol ma‘rifati” jamoatchilik kengashi a‘zolari tomonidan mahalla faollari bilan hamkorlikda o‘z hududidagi notinch oilalar o‘rtasida ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy tadbirlar, yetuk mutaxassislar, shoirlar, yozuvchilar, kino va teatr ustalari, san‘atkorlar bilan bevosita uchrashuv va suhbatlar tashkil etilmoqda.

“Farovon oila sari” oyligi doirasida “Mahalla yettiligi”, “Oqila ayollar” harakati, “Nuroniylar maslahati” guruhi, jamoatchilik tuzilmalari a‘zolari hamkor tashkilotlar bilan mahallalarda, ta‘lim muassasalarida “Oila – muqaddas”, “Oilaviy an‘analar”, “Oila ma‘naviyatining mustahkamligi”, “Ota va ona – oila tayanchi”, “Oilaga – sharqona sadoqat” mavzusida 13 176 tadan ziyod ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir va uchrashuvlar tashkil etildi.

Yakuniy qism. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan yaratilgan sharoit va moliyaviy dastaklar qisqa davrda “yetilik”ga mahalla ahli bilan ijobiy munosabat o‘rnatish imkoni berilib, aholini ijtimoiy, huquqiy himoya qilish, ularning bandligini ta‘minlash va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar natijadorligi oshirilmoqda.

Ijtimoiy davlat qurish – uzoq muddatli va izchil jarayon. Bu yo‘lda mahalla instituti davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarib, fuqarolarning muammolarini joyida hal etish, turmush tarzini yaxshilash, bag‘rikeng va adolatli jamiyat barpo etishga hissa qo‘shmoqda. Shuning uchun ham mahalla ijtimoiy davlatning eng muhim tayanchi sifatida qaralishi bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445716>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni.
3. Egamberdiyeva N., Abdimo‘minov O., Abduramanov X., Bo‘riyeva X., Ishkuvatov V., Raximov A., Raxmonov X., Ro‘ziyev X., Suvonqulov M., Tolipov M., Toshturov Sh.. O‘zbekiston mahallalari: kecha va bugun. – Toshkent, 2022, B-132-134.
4. Sh. Sodiqova. Keksalik va ma‘naviy meros. – Toshkent, 2021. – B. 18-20.
5. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi hisoboti // @uzmahallalari.